

## TIL O'RGANISH MASALALARINING MATBUOTDA YORITILISHI.

Guliston davlat universiteti

Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi talabasi

**Durdimurodova Dilnoza Umidjonovna**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mustaqil O'zbekiston matbuotida yoshlarning til o'rganishiga berilayotgan e'tibor masalasi tahlil qilinadi. Maqolada yoshlarga ta'lim -tarbiya bilan bir qatorda til o'rganish va o'rgatish metodlari, nafaqat o'zbek tili balki xorijiy tillarni o'rganishga qaratilgan islohot va chora-tadbirlarning matbuotdagi ahamiyati atroflicha o'rganiladi.

**Kalit so'zlar.** O'zbek tili, matbuot, mustaqillik, jurnallar, rus tili, qonun, chet tili, nashr, son, ta'lim, tarbiya, muassasa, oliy ta'lim, mamlakat, millat, maktab, qoraqalpoq, qozoq, olim, universitet.

**Kirish.** Til bu- odamlar orasidagi o'zaro muloqot vositasi hisoblanib, Har bir millatning, xalqning o'z milliy tili mavjud. Shu jumladan o'zbek xalqining ham o'z milliy tili o'zbek tilidir. 1989-yil 21-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasining muhokamasidan so'ng o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi va bu tarixiy hodisa mustaqillikdan ikki yil oldin ro'y berdi. Bu ulug' maqsadga erishish va tarixiy voqelikning ro'yobga chiqarilishida muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov bevosita rahbarlik qilganlar. 1992-yil 7-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida o'zbek tili davlat tili maqomiga ega ekanligi mustahkamlab qo'yildi. Yurtboshimiz aytganlaridek, «Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan qonun yo'li bilan himoya qilinadigan O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin mamlakatda to'rtinchi hokimiyat bo'lgan matbuotga alohida e'tibor qaratildi. Aynan mustaqillik davri va keying yillar matbuotida asosiy e'tibor yoshlar ta'lim tarbiyasiga qaratildi. Yoshlarning sifatli ta'lim olishi, xorijiy tillarni Punta egallashi davr matbuoti nigohida bo'ldi. Yoshlarni xorijiy tillarni o'rganishga chorlovchi "O'zbekistonda xorijiy tillar" ilmiy metodik jurnali shular

jumlasidandirmuqaddas timsollardan biriga aylandi». O'zbekistonda xorijiy tillar" (FLEDU.UZ) nomli elektron ilmiy-metodik jurnal va Internet portali — virtual muhitda chet tilini o'rganuvchilar uchun zarur axborot va bilimlarni beradigan, til o'rgatuvchi mutaxassislar uchun zamonaviy, yangi til o'qitish metodikalarini taqdim etadigan, o'zaro kasbiy muloqot hamda tajriba almashishga qaratilgan o'ziga xos akademik platforma hisoblanadi. “O'zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnali mamlakatimizda gumanitar sohadagi ilk elektron ilmiy nashr.

“O'zbekistonda xorijiy tillar” nomli kasbga oid elektron jurnal va Internet portali O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 16 oktyabrdagi № 283-son qaroriga asosan tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatida mavjud. Jurnalning vazifasi – lingvodidaktikaning holati, rivojlanish istiqbollari, xorijiy tillarni o'qitish metodikasi, nazariy lingvistika, tarjimashunoslik, adabiyot va madaniyat, jurnalistika haqida o'quvchilarga tezkor ma'lumotlarni yetkazib beradi. Gumanitar sohani ommalashtirish, olimlarning ilmiy izlanish va tadqiqot natijalarini e'lon qilish uchun o'ziga xos maydon taqdim etadi hamda axboriy faoliyatni amalga oshiradi. "O'zbekistonda xorijiy tillar " ilmiy metodik jurnali 2014-yildan boshlab Har yili 6 nashrda chop etildi.Dastlab 2014-yilda 4 ta soni,2015-yil 5 ta ,2016-yil 6 ta,2017-yil 5 ta,2018-yil 4ta,2019-yil 5 ta,2020-yil 5ta ,2022-yil 6ta,2023-yil 6ta soni Jami 53 nashri chop etildi.Ushbu jurnal o'zbek, ingliz va rus tillarida nashr etiladi. Bundan tashqari til o'rganishga ko'maklashishga qaratilgan "O'zbekiston:til va madaniyat " jurnali ham o'z faoliyatini samarali davom etmoqda. O'zbekistonda xorijiy tillar" (FLEDU.UZ) nomli elektron ilmiy-metodik jurnal va Internet portali — virtual muhitda chet tilini o'rganuvchilar uchun zarur axborot va bilimlarni beradigan, til o'rgatuvchi mutaxassislar uchun zamonaviy, yangi til o'qitish metodikalarini taqdim etadigan, o'zaro kasbiy muloqot hamda tajriba almashishga qaratilgan o'ziga xos akademik platforma hisoblanadi. “O'zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnali mamlakatimizda gumanitar sohadagi ilk elektron ilmiy nashr.

“O'zbekistonda xorijiy tillar” nomli kasbga oid elektron jurnal va Internet portali O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 16 oktyabrdagi № 283-son qaroriga asosan tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya



komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatida mavjud.

Jurnalning vazifasi – lingvodidaktikaning holati, rivojlanish istiqbollari, xorijiy tillarni o'qitish metodikasi, nazariy lingvistika, tarjimashunoslik, adabiyot va madaniyat, jurnalistika haqida o'quvchilarga tezkor ma'lumotlarni yetkazib beradi. Gumanitar sohani ommalashtirish, olimlarning ilmiy izlanish va tadqiqot natijalarini e'lon qilish uchun o'ziga xos maydon taqdim etadi hamda axboriy faoliyatni amalga oshiradi. “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan (guvohnoma № 0936). Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi Prezidiumining 2021-yildagi qarori bilan 10.00.00-Filologiya fanlari bo'yicha dissertasiya natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnal muassisi: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. Xalqaro standart seriya raqami - ISSN 2181-922X “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal. Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir. Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi. Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalida quyidagi rukndagi maqolalar e'lon qilinadi:

1. Lingvistika.
2. Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik.
3. Din. Falsafa. Ilohiyot.
4. Fan. Ta'lim. Metodika.
5. Sotsiologiya. Psixologiya.
6. Tarix. Manbashunoslik.
7. Etnologiya. Etnografiya. Antropologiya.
8. San'at.



Jurnal veb sahifasi: <http://uzlc.navoiy-uni.uz>

### **TAHRIR KENGASHI TARKIBI**

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo‘raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G‘aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodirbek Jo‘raqo‘ziyev, Anvar Sayfullayev.

### **TAHRIR HAY‘ATI TARKIBII**

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon), Frederik Bressand (Fransiya), Ingeborg Baldauf (Germaniya), Mark Toutant (Fransiya), Rochelle Almeida (AQSH), Akrom Habibullayev (AQSH), Valeriy S. Xan (O‘zbekiston), Eunkyung Oh (Janubiy Koreya), Oqilxon Ibrohimov (O‘zbekiston), Shodmon Vohidov (Tojikiston), Maria Sabtelni (Kanada), Timur Kocaoglu (AQSH), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Tanju Seyhan (Turkiya), Xisao Komatsu (Yaponiya), Emek Uşenmez (Turkiya), Abdulvahap Kara (Turkiya), Alizoda Saidumar (Tojikiston), Dilorom Ashurova (O‘zbekiston), Darya Jigulskaya (Rossiya) hisobotlarini qabul qiladi.

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali 2017-yil 26-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan (guvohnoma № 0936). Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi Prezidiumining 2021-yildagi qarori bilan 10.00.00-Filologiya fanlari bo‘yicha dissertasiya natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. Jurnal muassisi: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. Xalqaro standart seriya raqami - ISSN 2181-922X

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san‘at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal. Jurnal 2023-yilda Academic Resource Index (ResearchBib), Crossref, Advance science index, SJImpact Factor-4.8 nufuzli xalqaro ilmiy jurnallar bazasiga kiritilgan. Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir. Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e‘lon qilinmaydi. Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar,

adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin. O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining muassisi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hisoblanadi. Jurnal 1958-yildan buyon nashr etiladi. O‘zbekiston Respublikasi matbuot va axborot agentligi tomonidan 2017-yil 19-oktabrda ro‘yxatga olingan. Guvohnoma № 0053. “O‘zbek tili va adabiyoti” – o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi masalalarini keng yorituvchi mamlakatimizdagi yagona ilmiy-akademik jurnal. Jurnalda ilmiy-adabiy jarayon tahlil qilinib, o‘zbek tili va adabiyoti, folklor sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, bu fanlardagi eng so‘nggi izlanishlar natijalari, muhim va dolzarb muammolar, bahs-munozaralar, mumtoz merosimizning e’lon qilinmagan namunalari, shuningdek, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va folklorshunoslikka oid nazariy masalalar yoritib boriladi. Jurnal tili: o‘zbek tili.

Maqsadi va vazifalari: Tilshunoslik, adabiyotshunoslik va folklorshunoslikning muhim nazariy masalalari va dolzarb muammolariga bag‘ishlangan ilmiy va munozarali maqolalarni yoritib borish, bu fanlardagi eng so‘nggi izlanishlar natijalari, yangi tadqiqotlar bilan keng o‘quvchilar ommasini tanishtirib va boshqalar. Ixtisosligi: Jurnalda tilshunoslik, adabiyotshunoslik va folklorshunoslik yo‘nalishidagi maqolalar chop etiladi. Tarqatish hududi: O‘zbekiston Respublikasi Davriyligi: Ikki oyda bir marta Moliyalashtirish manbai: Asosiy moliyalashtirish obuna tushumi hisobidan. Hajmi: 70x108 formatda, 128 sahifada.

Adadi: obunachilar soniga ko‘ra belgilanadi. Ushbu jurnalning nashr etish muntazamligi Har oyda bir marta, bir yilda 12 sonni tashlik etadi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq talimi muassisligida tashkil qilingan "Til va adabiyot ta'limi" metodik jurnali mamalaktimizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida til va adabiyot fanlarini o'qitish, amaliyot va nazariya o'rtasida bog'liqlikni taminlash hamda davlat tili va xorijiy tillarning o'qitilishidagi muammo va ularning yechimlariga oid yangiliklarni amaliyotchi pedogoglarga yetkazishga xizmat qiladi. Ushbu jurnalning 2021-yil nashr etilgan 1-sonidagi "Til va ta'lim integratsiyasi" nomli maqolasida quyidagi dolzarb masalalarga nazar tashlanadi. Tilni muloqot vositasi va ilm-u ma'rifat kaliti sifatida o'rganish tarixiy mavzulardan biridir. Bugungi kunda til davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya maskanlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish masalasi ham bugungi kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo'lib qoldi.

Bir qator tilshunos olimlar, turli ijtimoiy,iqtisodiy,siyosiy,madaniyva boshqa soha vakillari, mamlakatimiz ziyolilari, tilimiz jonkuyarlari va fidoyilari tomonidan o‘zbek tilini dunyo miqyosiga olib chiqish, obro‘yi, tarixini qayta tiklash, yosh avlod qalbida ona tiliga nisbatan mehr uyg‘otish, xorij fuqarolariga ham o‘zbek tilining jozibadorligini namoyish etish va uning auditoriyasini yanada kengaytirish masalalari qayta-qayta ko‘rib chiqildi.

Natijada 2020-yil 20-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni imzolandi. Uzluksiz ta‘lim jarayonida maktabgacha ta‘lim muassasalaridan boshlab oliy va undan keyingi ta‘limda ham o‘zbek tilini mukammal o‘rgatish, aholining til savodxonligini oshirish, ayniqsa, tarbiyachi va o‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri bo‘lishi zarur. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan milliy va ta‘lim o‘zga tillarda bo‘lgan deyarli barcha o‘rta umumta‘lim maktablarida ona tili yoki o‘zbek (davlat) tili fanlari o‘qitiladi. Shu o‘rinda bir fikrni e‘tirof etib ketishni o‘rinli deb bildik. Maktablarda o‘qitiladigan rus va chet tillari kichik guruhlariga bo‘linib, ikkitadan o‘qituvchi tomonidan olib boriladi. Bu azaliy an‘anaviy usul. Sababi til o‘rganish boshqa sohalarga nisbatan ham zarur, ham murakkab hisoblanganligi sababli har bir o‘quvchi bilan individual ishlash imkoniyatini yaratish maqsadida sobiq sho‘ro davridan shunday qabul qilingan edi va bu an‘ana bugungi kunda ham davom etmoqdi. Bu, albatta, juda o‘rinli. Lekin nega aynan rus yoki chet tillarini o‘qitishda shu usuldan foydalaniladi? O‘zbekistonda o‘z ona tilini ham shu tariqa o‘qitish vaqti kelmadimikin? To‘g‘ri, bugungi kunda ko‘plab olimlarimiz tomonidan til o‘rgatishni soddalashtirish, inson hayoti davomida zarur bo‘lgan til ilmi, qonun-qoidalarinigina o‘rgatish kerakligi haqida juda ko‘plab gapirilyapti. Bu fikrlarga to‘la qo‘shilgan holda o‘zbek tiliga hurmat nuqtayi nazaridan uni chin ma‘noda millat vatanparvari sifatida o‘rganishda sinflarni kichik guruhlariga bo‘lib o‘qitish davri kelmadimikan? Milliy maktablarda o‘quvchilarga ona tilini hijjalab o‘qitish zarurati yo‘q, albatta. Lekin boshqa tillarni o‘rganishi uchun zamin bo‘ladigan tilni, kerak bo‘lsa, shunday o‘qitish kerak deb hisoblaymiz. Chunki ona tili darslarida olinadigan yozma ishlar (diktant, insho, bayon) o‘qituvchi tomonidan tekshirilgach, xatolar Nargiza MUSULMONOVA, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi TIL VA TA‘LIM INTEGRATSIYASI ustida ishlash, o‘quvchiga keyingi



safar yana shu xatolarni takrorlamasligi uchun tushuncha berish til ilmini singdirishning bir qismi hisoblanadi. Bir sinfda kamida 30 nafar o‘quvchi bo‘lsa, shundan hech bo‘lmaganda 20 nafarining yozma ishidagi xatolarini tahlil qilish kerak bo‘ladi. 40–45 daqiqa davomida o‘qituvchi bunga to‘laligicha ulgurmaydi. Agar sinfda (guruhda) 10–15 nafar o‘quvchi bo‘lganda, barchasining ishi to‘liq tahlil qilinib, hatto husnixatiga ham e’tibor qaratish imkoni bo‘lar edi. O‘zga tilli maktablarda o‘zbek (davlat) tili fani, yuqorida aytilganidek, kichik guruhlariga bo‘lib o‘qitiladi.

Respublikada faoliyat olib borayotgan xususiy maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida ham davlat ta’lim-tarbiya maskanlarida bo‘lgani kabi o‘zbek tilining maxsus muallimlari dars va mashg‘ulotlar olib borishi zarurati bugungi kunda sezilmoqda. Aynan shuning uchun Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilini o‘qitish” yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbek tili fakulteti tashkil etilgan. Bugungi kunda bu fakultet mamlakatimizdagi rus, qoraqalpoq, tojik va boshqa ta’lim o‘zga tillarda olib boriladigan maktablar uchun o‘zbek (davlat) tili fani mutaxassislarini tayyorlab beradi. Shuningdek, ushbu fakultet o‘zbek tilini o‘rganishni ixtiyor qilgan xorijlik qiziquvchilar bilan ham masofaviy ta’lim mashg‘ulotlarini olib boradi. Fakultet talabalari xorijiy hamkorlik asosida turli davlatlarning turkolog olimlari videodarslarida (ZOOM platformasi orqali) ham ishtirok etadi. “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonga muvofiq 2025-yilga qadar davlat maktabgacha ta’lim tizimida amaldagi maktabgacha ta’lim muassasalarining hududlarini kengaytirish yoki yangi quriladigan muassasalar hisobiga o‘zbek tilli guruhlar qamrovini 72%, 2030-yilgacha esa 80% ga yetkazish ko‘zda tutilgan. Shu o‘rinda biz xususiy maktabgacha ta’lim muassasalarida ham rus, ingliz, xitoy, arab va boshqa tillar singari aynan o‘zbek tilini bolalarga maxsus mashg‘ulotlar orqali o‘rgatish, bolalarni qaysi millat vakili bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zi yashab turgan mamlakatning – Vatanining tilida bemalol o‘z fikrini ifodalay olishi, Vatan ramzlari, tarixiy shaxslari, qadriyatlarini, shoir, yozuvchi, olim-u ulamolari haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari ham dolzarb hisoblanadi. Bugun yoshlarimizda ko‘p til o‘rganish, xorijda tajriba oshirish, ta’lim olish ishtiyoqi juda baland. Bu mamlakatimiz uchun, uning gullab-yashnashi, rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilishi uchun juda



muhim, albatta. Ammo o‘z ona tiliga bepisandlik bilan qarash, uni ardoqlamaslik, boshqa tillardan past ko‘rish bu darkor.

Ma‘lumki, O‘zbekiston ko‘p millatli mamlakat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun va boshqa ko‘plab qonunlarda yurtimizda istiqomat qiladigan boshqa millat vakillarining tili, dini, urf-odatlariga hurmat bilan qarash alohida e‘tirof etilgan. Bu “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida ham o‘z aksini topgan. Demak, o‘zga til vakillari uchun o‘zbek tilini o‘rgatish, uni o‘z tili barobarida ishlatishga keng imkoniyatlar yaratish ham bugun asosiy e‘tiborda bo‘lmog‘i lozim. O‘zbekistonda barcha ta‘lim tashkilotlari, xususan, oliy ta‘lim muassasalarida “O‘zbek tili” kafedralari tashkil etilgan. Farmonda e‘tirof etilishicha, ular 2025-yilga qadar 120 taga, 2030-yilda esa 140 taga yetkazilishi kerak.

Kafedra professor-o‘qituvchilari tilni o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish vazifasini oldilar. Ta‘lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvni ta‘minlash talab qilinadi.

Bu – ma‘naviy eskirgan, zamon talablaridan ortda qolgan yoki javob berolmaydigan texnologiyalar asosida emas, balki bugun yosh avlod hayotining bir bo‘lagiga aylanayotgan axborot texnologiyalari, kommunikatsion qurilmalar orqali ulargatilo‘rgatishni yo‘lga qo‘yish de ganidir.

- Hozirgi kunda bir qancha davlatlarda o‘zbek tiliga nisbatan qiziqish ancha kuchaygan. Biz buni deyarli har oyda o‘tkazilayotgan Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar orqali bilib boryapmiz. Aynan xorijlik fuqarolarning o‘zbek tilini o‘rganishiga imkoniyat yaratish, masofaviy ta‘lim orqali saboqlar olib borish, o‘zbek tilining ta‘limiy korpusi, platformasini yaratish, lug‘atlarni yangilash kabi bir qancha vazifalar belgilab olindi.

**XULOSA.** Mening xulosam shundan iboratki, hozirgi globallashtirish jarayonida til o‘rganish davr taqozosidir. Jahon ta‘lim tizimi bilan mustahkam aloqada bo‘lish va sifatli ta‘lim olish uchun til o‘rganish zarur va shartdir. Shu sababli Har bir davlat matbuotida til o‘rganishga alohida etibor berilmog‘i lozim.



### Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. O'zbek xalq bayramlari. "Sharq". T.2002
3. Xalq so'zi», 2001 yil, 25 oktyabr
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbek\\_tili](https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbek_tili)
5. <https://alifbo.tech.blog>
6. [http://uza.uz/uz/politics/prezident-shavkat-mirziyoyevning-o'zbek\\_tiliga\\_davlat\\_tili\\_maqomi.21.10.2019](http://uza.uz/uz/politics/prezident-shavkat-mirziyoyevning-o'zbek_tiliga_davlat_tili_maqomi.21.10.2019)
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik) Toshkent: "Universitet" nashriyoti. 2006. – 464 b
8. Кунин .А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1986. – 336 с.
9. Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. Издание второе. – М., 2002. – 220

---

# Research Science and Innovation House